


TOSHKENT SHAHAR KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, shaharda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 106,9 mingtani tashkil etadi, shundan 94,8 mingtasi yoki 88,6 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	106 944	96 811	94 816
2024	100 695	90 763	88 952
2023	98 235	88 314	86 588
2022	115 777	105 677	104 093
2021	108 208	98 514	97 263

Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng ko'p ulush: Mirzo Ulug'bek tumanida – 11,9 foiz Yunusobod tumanida – 11,9 foiz, Chilonzor tumani – 11,4 foiz, Olmazor tumani – 8,9 foiz va Shayxontohur tumanida – 9,1 foizni tashkil qilmoqda.

Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Mirzo Ulug'bek tumanida – 11,7 foiz, Yunusobod tumanida – 11,7 foiz, Chilonzor tumani – 11,3 foiz, Olmazor tumani – 8,9 foiz va Yashnobod tumanida – 9,3 foizni tashkil qildi. foizni tashkil qil

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Toshkent shahar	106 944	96 811	94 816
Yunusobod tumani	12 691	11 343	11 090
Chilonzor tumani	12 191	10 906	10 710
Mirzo Ulug'bek tumani	12 749	11 336	11 070
Olmazor tumani	9 471	8 611	8 484
Shayxontohur tumani	9 735	8 602	8 371
Yashnobod tumani	9 952	9 043	8 824
Yakkasaroy tumani	9 556	8 849	8 680
Mirobod tumani	8 963	7 958	7 701
Uchtepa tumani	7 940	7 335	7 279
Sergeli tumani	6 409	5 995	5 886
Yangihayot tumani	4 234	3 962	3 889
Bektemir tumani	3 053	2 871	2 832

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- noyabr holatiga 32,1 foizni tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 10,4 %, uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,8 %.


Ushbu uch turdagi faoliyat qolgan sohalarga nisbatan yuqori foizni tashkil qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	678	662	660
Sanoat	11 170	11 136	10 958
Qurilish	7 304	7 282	7 170
Savdo	34 374	34 366	33 893
Tashish va saqlash	4 348	4 334	4 245
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 533	6 530	6 448
Axborot va aloqa	5 762	5 697	5 512
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2 323	2 078	2 010
Boshqa turlar	34 452	24 726	23 920

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, 96,8 mingta faol tijorat korxonalaridan 86,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	86 246	89,1
Xususiy korxonalar	6 739	7,0
Oilaviy korxonalar	3 100	3,2
Aksiyadorlik jamiyati	318	0,3
Boshqalar	408	0,4

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 11 200 ta korxonalardan 2 298 qo'shma korxonalar va 8 902 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosan, savdo sohasidagi korxonalar soni 4 295 ta, sanoat sohasida 1 263 ta va qurilish sohasida 950 taga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	11 200	2 298	8 902
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	66	22	44
Sanoat	1 263	455	808
Qurilish	950	172	778
Savdo	4 295	677	3618
Tashish va saqlash	421	78	343
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	547	97	450
Axborot va aloqa	1 022	176	846
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	134	49	85
Boshqa turlar	2 502	572	1930

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 2 533 ta korxona bilan Xitoy Xalq Respublikasi egalladi. Bu shahardagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,6 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (20,3%), Turkiya (11,4%), Qozog'iston (8,4%) va Janubiy Koreya (4,0%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	11 200	2 298	8 902
Rossiya	2 274	545	1 729
Xitoy	2 533	239	2 294
Turkiya	1 277	256	1 021
Qozog'iston	947	185	762
Afg'oniston	210	37	173
Janubiy Koreya	444	85	359
AQSH	231	90	141
Germaniya	159	66	93
Qirg'iz.Respublikasi	201	42	159
Boshqalar	2 924	753	2 171

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
J. Mustafoyev
71 203 80 03 (3560)

Maznil:
Toshkent sh. A. Temur shox
ko'chasi, 11-uy.
